



## **Symposium on Natural and Applied Sciences**

Hosted Online from London, United Kingdom

Date: 5<sup>th</sup> May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

---

### **RAHIM AHMEDOVNING SAN'AT RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI**

Akbarova Xusnida

Sherali Jo'rayev nomidagi musiqa va san'at oliy maktabi o'qituvchisi

#### **Annotatsiya**

Ushbu maqola O'zbekiston xalq rassomi Rahim Ahmedovning ijodiy faoliyati, uning o'zbek tasviriy san'atidagi uni hamda portret janri rivojiga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi. Rassom asarlarining badiiy va psixologik xususiyatlari, milliy ruh va inson kechirmalarini aks ettirishdagi mahorati yoritiladi. Shuningdek, Rahim Ahmedov ijodining bugungi san'at taraqqiyotidagi ahamiyati ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** tasviriy san'at, portret janri, rangtasvir, o'zbek rassomligi, badiiy mahorat, milliy obraz.

#### **Аннотация**

В данной статье анализируется творческая деятельность народного художника Узбекистана Рахима Ахмедова и его вклад в развитие узбекского изобразительного искусства и жанра портрета. Освещаются художественные и психологические особенности произведений художника, его мастерство в отражении национального духа и человеческих переживаний. Также раскрывается значение творчества Рахима Ахмедова в развитии современного искусства.

**Ключевые слова:** изобразительное искусство, жанр портрета, живопись, узбекское искусство, художественное мастерство, национальный образ.



## Symposium on Natural and Applied Sciences

Hosted Online from London, United Kingdom

Date: 5<sup>th</sup> May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

---

### Annotation:

This article analyzes the creative activity of the People's Artist of Uzbekistan Rahim Ahmedov, his contribution to Uzbek fine arts and to the development of the portrait genre. The artistic and psychological features of the artist's works, as well as his skill in reflecting national spirit and human emotions, are highlighted. In addition, the importance of Rahim Ahmedov's in the development of modern art is revealed.

**Keywords:** Fine art, portrait genre, painting, Uzbek art, artistic mastery, national image.

O'zbek tasviriy san'ati XX asr davomida katta taraqqiyot bosqichini bosib o'tdi. Bu davrda milliy rassomchilik maktabining shakllanishi va rivojlanishi ko'plab iste'dodli ijodkorlar faoliyat olib boradilar. Ana shunday rassomlardan biri-Rahim Ahmedovdir. U san'atni faqat chiroyli tasvir yaratish vositasi emas, balki inson ruhiyatini ochib beruvchi kuch deb bilgan. Shu bois uning asarlarida oddiy insonlarni quvonchi, mehnati, orzu-intilishlari tabiiy va samimiy aks etadi. Rassom 1924-yilda Toshkent shahrida tug'ilgan. U Toshkent badiiy bilim yurtida va Leningrat rassomlik, haykaltaroshlik hamda me'morchilik institutida tahsil oldi. Rassom ijodining asosiy yo'nalishi portret janiridir. Uning asarlarida oddiy xalq vakillari, qishloq ayollari, mehnatkash insonlar obrazini tasvirlaydi. Rassomning "Qahramon ona", Cho'pon", "O'zbek izi portreti", "Surxandaryolik ayol" kabi asarlari o'zbek tasviriy san'atining nodir namunalaridan biridir. Bu asarlarda milliy kolorit, rang uyg'unligi va obrazlarning ruhiy holati juda chiroyli tasvirlangan. Rahim Ahmedov portret yaratishda inson xarakterini ochib berishga intilgan. Uning ijodi o'zbek tasviriy san'atining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Rassom o'zining sermazmun va ta'sirchan asarlari orqali ko'plab yosh



## Symposium on Natural and Applied Sciences

Hosted Online from London, United Kingdom

Date: 5<sup>th</sup> May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

ijodkorlarga ilhom bergan. Bugungi kunda ham uning asarlari san'at ixlosmandlari tomonidan yuqori baholanadi. Rahim Ahmedov o'zbek tasviriy san'tida o'chmas iz qoldirgan mashhur rassomlardan biridir. Rahim Ahmedov 1994-yilda ko'pn yillik vijdonan mehnati, iqtisodiyot, fan va madaniyatni rivojlantirish, yosh avlodni vatanparvarlik sadoqat ruhida tarbiyalashda ulkan xizmatlari uchun "Shuhrat" medali sohibi, badiiy akademiyasining kumush medali bilan taqdirlangan.



Rahim ahmedovning "Qahramon ona" asari o'zbek tasviriy san'atining mashhur namunalaridandir. Bu asarda o'zbek ayolining sabr-toqati, mehribonligi va matonati yoritilgan. Rassom ona obrazini juda tabiiy va samimiy ko'rsatgan. Asardagi ranglar uyg'unligi qahramonning ruhiy holatini ochib bergan. Asarda ayolning yuz ifodasi orqali uning hayotiy tajribasi, farzandlariga bo'lgan mehri va kuchi

irodasini ko'rishimiz mumkin. Nigohidagi chuqur ma'no tomoshabinda hurmat va ta'sir hissini uyg'otadi. Milliy kiyimlari va oddiy mihit o'zbek xalqining urf-odatlarini ko'rsatib bergan. Rassom bu asar orqali nafaqat bir inson obrazini, balki o'zbek ayollarini umumiy qiyofasini tasvirlagan. Asarning kompozitsiyasi sodda, lekin mazmun jihatidan juda kuchli ishlangan. Kompozitsiyaning markazida ona obrazi joylashgan bo'lib, qahramonning yuz ifodasi va nigohiga qaratilgan. Rassom asarda ortiqcha detallar yo'q aksincha qahramon ruhiyatiga urg'u bergan, muozanatni saqlagan. Asarda tabiiy va sokin ranglardan foydalangan. "Qahramon ona" asari tomoshabinda chuqur taassurot qoldirgan.



## Symposium on Natural and Applied Sciences

Hosted Online from London, United Kingdom

Date: 5<sup>th</sup> May, 2026

Website: <https://econferencia.com>



Asarda oddiy qishloq hayoti tasvirlangan. Bu asar inson qalbiga osoishtalik va umid tuyg'usini baxsh etuvchi manzaradir. Rassom oddiy qishloq hayoti, tabiat va tonggi muhitni nozik ranglar orqali tasvirlagan. rassom yorqin bo'lmagan, ammo iliq ranglardan foydalangan. Asarning markaziy qismida oddiy uylar ularning atrofida tabiat manzarasini ko'rishimiz



mumkin. Bu esa inson va tabiat uyg'unligini ko'rsatadi. Uylarning sodda ko'rinishi qishloq hayotini sokinligini, samimiyligini va tabiiyligini his qilishimiz mumkin. Rassom detallarni aniq chizishdan ko'ra, umumiy taassurot va kayfiyatni berishga ko'proq e'tibor bergan. Asarda tong vaqti yangi kun, yangi umid, yangi imkoniyatlardir. Tong inson hayotiga yangi kunning boshlanishi bo'lib, insonni ezgulikka, hayotni qadrlashga va har bir yangi kunni quvonch bilan qarshi olishga undaydi. Bundan tashqari, asarda inson va tabiat o'rtasidagi yaqinlik yaqqol seziladi.

Bu asar 1952 yili yaratilgan bo'lib, oddiy mehnatkash inson obrazini yaratgan. Bunda yosh cho'pon yigiti o'zining an'anaviy libosida och rangli ko'ylak beliga bog'langan qizil belbog' va boshida do'ppisi bilan tasvirlangan. Markazda qahramon va uning qo'lida cho'pon tayog'ini ushlagan holda tabiat qo'ynida



## **Symposium on Natural and Applied Sciences**

Hosted Online from London, United Kingdom

Date: 5<sup>th</sup> May, 2026

Website: <https://econferencia.com>

quyoshli o'lkaning yorqin va issiq ranglardan mahorat bilan foydalangan. Cho'ponning yuz ifodasi jiddiy va o'ychan. Nigohi uning irodali va mard karakterini ochib beradi. Bu portret nafaqat bir shaxsning qiyofasi, balki o'sha davr mexnatkash o'zbek xalqining umumiy qiyofasini ramziy ravishda ifodalaydi. Rassom asarni realizm uslubida ishlagan bo'lib, unda milliy kolorit va tabiatning inson bilan uyg'unligi yaqqol namoyon bo'lgan. Rahim Ahmedovning ushbu asari O'zbekiston tasviriy san'atining durdonalaridan biri sanaladi va hozirda O'zbekiston Davlat san'at muzeyida saqlanib kelinmoqda.

### **Xulosa**

Rahim Ahmedov o'zbek tasviriy san'ati rivojiga katta hissa qo'shgan iste'dodli rassomlardan biridir. Uning ijodida inson ruhiyati, milliy qadriyatlar, mehnatkash xalq hayoti va ona obrazini ulug'vorligi chuqur badiiy mahorat bilan aks ettirilgan. Rassom asarlarida realizm uslubi ustun bo'lib, obrazlarning tabiiyligi va samimiyligi tomoshabinda kuchli taassurot uyg'otadi. Rahim Ahmedov nafaqat mohir rassom, balki yosh ijodkorlarga yo'l ko'rsatgan ustoz sifatida ham qadrlanadi. Uning jiodi bugungi kunda ham san'atshunoslar, talabalar va yosh rassomlar uchun muhim ijodiy maktab bo'lib xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN MANBALAR RO'YXATI.**

1. Jahon san'at tarixi. Nemat Abdullayev.
2. Tasviriy san'at asoslari. Rahim Xasanov.
3. Saodat jurnali
4. Karimov N. Ozbekiston tasviriy san'ati tarixi-Toshkent :O'qituvchi, 2007.
5. Abdullayev R. O'zbek rassomlari-Toshkent: San'at, 2010.